




INNOVATIVE WORLD  
Ilmiy tadqiqotlar markazi

# INNOVATION TALABALAR AXBOROTNOMASI



 <https://innoworld.net>

 +998335668868



ILMIY JURNAL



 ICI JOURNALS  
MASTER LIST

 ISSN  
INTERNATIONAL  
CODING  
#0000  
15000  
INTERNATIONAL CENTER

 doi

 zenodo

 OpenAIRE

 Academic  
Resource  
Index  
ResearchBID

 Google Scholar


 open access.nl



## INNOVATION TALABALAR AXBOROTNOMASI

3-JILD, 4-SON  
2026

Jurnal quyidagi xalqaro bazalarda indekslanadi:



Ilmiy jurnalning rasmiy sayti:

[www.innoworld.net](http://www.innoworld.net)

O'ZBEKISTON-2026

## ONLAYN TA'LIM TIZIMLARIDA O'QUVCHILAR MOTIVATSIYASINI OSHIRISH USULLARI

Davronova Umida Qilichovna

Navoiy davlat universiteti

"Pedagogika nazariyasi va tarixi" mutaxassisligi magistranti

**Annotatsiya.** Mazkur tezisdagi onlayn ta'lim tizimlarida o'quvchilar motivatsiyasini oshirishning samarali usullari tahlil qilinadi. Jumladan, interaktiv metodlardan foydalanish, rag'batlantirish mexanizmlari, individual yondashuv hamda zamonaviy axborot texnologiyalarining ahamiyati yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** onlayn ta'lim, motivatsiya, interaktiv metodlar, rag'batlantirish, mustaqil ta'lim.

**Аннотация.** В данном тезисе рассматриваются эффективные методы повышения мотивации учащихся в системе онлайн - обучения. Особое внимание уделяется использованию интерактивных методов, механизмам поощрения, индивидуальному подходу и роли современных информационных технологий.

**Ключевые слова:** онлайн - обучение, мотивация, интерактивные методы, поощрение, самостоятельное обучение.

**Abstract.** This thesis analyzes effective methods for increasing students' motivation in online learning systems. It highlights the use of interactive methods, incentive mechanisms, individualized approaches, and the role of modern information technologies.

**Keywords:** online learning, motivation, interactive methods, incentives, independent learning.

So'nggi yillarda onlayn ta'lim muhitida talabalar motivatsiyasini saqlab qolish va rivojlantirish zamonaviy ta'limning muhim masalalaridan biridir. Masofaviy o'qish jarayonida an'anaviy nazoratning cheklanganligi hamda bevosita ijtimoiy muloqotning kamayishi talabalarda o'qishga bo'lgan qiziqishning pasayishiga olib kelishi mumkin.

Motivatsiya talabaning o'quv faoliyatiga bo'lgan ichki qiziqishi va tashqi rag'batlar orqali shakllanadi. Ayniqsa, ichki motivatsiya - bilim olishga intilish, o'zini rivojlantirish istagi onlayn ta'limda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shu bilan birga, baholash tizimi, rag'batlantirish va ijtimoiy e'tirof kabi tashqi omillar ham motivatsiyani qo'llab-quvvatlaydi.

Talabalar motivatsiyasini oshirish uchun quyidagi strategiyalar samarali hisoblanadi: aniq va erishish mumkin bo'lgan maqsadlarni belgilash, o'quv jarayonida ijobiy emotsional muhit yaratish, muntazam rag'batlantirish va muvaffaqiyatlarni e'tirof etish. Shuningdek, interaktiv o'qitish usullari, jamoaviy topshiriqlar va doimiy muloqot orqali talabalarning faolligini oshirish mumkin. Gamifikatsiya elementlaridan foydalanish (ballar, reytinglar, mukofotlar) ham o'quv jarayoniga qiziqishni kuchaytiradi.

“Motivlashtirish – ta’lim oluvchilar faoliyatini ma’lum ehtiyojlardan kelib chiqqan holda, psixologik ta’sir etish yo‘llari bilan maqsadga yo‘naltirish. Motivlashtirish ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining xatti-harakatlariga yo‘nalish beradi, erishish zarur bo‘lgan maqsadlarni belgilaydi. Motivlashtirish ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining hamkorlikdagi faoliyatini rivojlantirish, takomillashtirish yo‘nalishida harakatga keltiruvchi dinamik jarayon hisoblanadi”. Motivlashtirish – bu ruhiy omil bo‘lib, shaxs faolligining manbai, sababi, dalili va har xil turli ehtimollaridir. U xodimlarni jonli mehnat faoliyatiga rag‘batlantiruvchi kuchli vositadir.

O‘quv motivlari – o‘quvchilarning o‘quv faoliyatlarini ma’lum yo‘nalishga yo‘naltiruvchi omillardir. O‘quv faoliyati psixologiyasi va uni amalga qo‘llash jarayonida motivatsiya muammosi Lev Vygotskiy, Aleksandr Asmolov, Vasiliy Davydov, Aleksey Leontev, Aleksandr Luriya, Anatoliy Petrovskiy, Sergey Rubinshteyn kabi olimlar tomonidan chuqur o‘rganilgan. Ularning ta’kidlashicha, ta’lim faoliyatini amalga oshirish jarayonida o‘quvchining boshqalar bilan o‘zaro munosabatlariga asoslangan motivatsiya turi ijtimoiy motivlar hisoblanadi.

Psixologiyada motiv – bu insonning faol harakatlarini ma’lum bir yo‘nalishga yo‘naltiruvchi omil bo‘lib, u inson erishmoqchi bo‘lgan natijaning umumlashtirilgan tasviri sifatida namoyon bo‘ladi. Motiv maqsadga erishish jarayonida ijobiy his-tuyg‘ularni yuzaga keltirishi yoki aksincha, maqsadga erishilmaganda salbiy his-tuyg‘ular shaklida ifodalanishi mumkin.

Motiv ehtiyoj yoki maqsad bilan aynan bir xil tushuncha emas. Ehtiyoj – bu jismoniy yoki psixologik noqulaylikni bartaraf etishga qaratilgan, ko‘pincha ongsiz istakdir. Maqsad esa inson tomonidan ongli ravishda qo‘yiladi va tashqi hamda ichki omillar asosida shakllanadi. Motivlar esa ehtiyojlar asosida yuzaga kelib, maqsadga erishishga undovchi kuch vazifasini bajaradi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, muloqot motivatsion sohada alohida o‘rin egallaydi. Faoliyat jarayonida talabalar muqarrar ravishda boshqalar bilan muloqotga kirishadilar, shu sababli muloqot ko‘nikmalari faoliyat motivlari bilan uzviy bog‘liqdir.

Quyida motivatsiyani oshirishning samarali usullari keltiriladi:

- Ichki motivatsiyani kuchaytirish. “Iroda bor joyda yo‘l bor” degan hikmat bejiz aytilmagan. Har qanday faoliyatga kirishish uchun ichki tayyorgarlik zarur. Ichki motivatsiya – shaxsning tashqi ta’sirlarsiz, o‘z qiziqishi va ehtiyojlari asosida faoliyat olib borishga intilishidir. Talaba bilim olishni qiziqarli deb bilsa, bu eng samarali motivatsiya hisoblanadi.

- Tashqi motivatsiyani oshirish. Tashqi motivatsiya talabaning hayotiy sharoitlari bilan bog‘liq bo‘lib, mukofot olish yoki jazodan qochish istagi asosida shakllanadi. Ta’lim jarayonida ichki va tashqi motivatsiyaning uyg‘unligi ma’lum darajada samaradorlikni ta’minlaydi.

- Psixologik qo‘llab-quvvatlash. Psixologik qo‘llab-quvvatlash talabalarning ruhiy holatini yaxshilash va o‘quv jarayonida yuzaga keladigan stressni

kamaytirishga xizmat qiladi. Ijtimoiy rag‘batlantirish va o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirish orqali talabalarning o‘qish samaradorligi ortadi.

- Zamonaviy psixologik yondashuvlar. Zamonaviy yondashuvlarda talabalarning ijtimoiy, hissiy va ruhiy holatlari hisobga olinadi. Shu asosda o‘quv jarayonini tashkil etish yuqori samaradorlikka olib keladi. Masalan, onlayn o‘quv platformalaridan foydalanish talabalarning qiziqishini oshirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Mutaxassislar tomonidan ishchilar va talabalar faoliyatini faollashtirish maqsadida turli motivatsion usullar qo‘llaniladi. Shu bilan birga, o‘z-o‘zini rag‘batlantirish usullari ham mavjud bo‘lib, ularga tasdiqlarni o‘qish va takrorlash, o‘z-o‘zini ifoda etish, buyuk shaxslar hayot yo‘llarini o‘rganish hamda vizualizatsiya kiradi. Motivatsiya nazariyalarini o‘rganish insonning o‘z xatti-harakatlarini hamda boshqalarning faoliyatini chuqurroq anglashiga, shuningdek samaradorlikni oshirishga qaratilgan aniq reja ishlab chiqishiga yordam beradi. Inson o‘zini harakatga undash mohiyatini anglab yetgan sari, vaqt o‘tishi bilan ko‘plab muammolarni hal etish osonlashadi.

Hayotda muvaffaqiyatga erishish faqatgina motivatsiyaga bog‘liq bo‘lib qolmay, balki muammolarni hal qilishda ijodiy va nostandart yondashuv kabi boshqa muhim ko‘nikmalar bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Shu bois ta‘lim jarayonida motivatsiyaning o‘rni nihoyatda katta ahamiyatga ega. Talabalarning o‘quv faoliyatini aynan motivatsion soha orqali rivojlantirish yuqori natijalarga erishishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Shu omillar talabalarning faolligini oshirib, ularni yanada motivatsiyalangan holda o‘qishga undaydi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Ergashova, S., Yadgarova, L., Ziyodulloeva, M., Norova, F., & Yuldashova, N. (2022). The principles of using computer technologies in the formation and development of students’ language skills. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 13 (Special Issue 6).
2. Begmuradovich, S. A. (2023). Integration of educational process forms. *Pedagogika, psixologiya va ijtimoiy tadqiqotlar journal of pedagogy, psychology and social research*.
3. Sharafitdinov Abdulla. Sharafitdinov, —Shaxs faoliyatida motivatsiyaning ilmiy nazariy psixologik tahlili, *Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti ilmiy-tadqiqotlar jurnali*. 2022-yil. 54-bet